

**AYOLLAR NUTQIGA XOS PARALINGVISTIK VOSITALARNING LEKSIK-
SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

(Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasi asosida)

Pirnazarova Nigina Majid qizi

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti.

niginapirnazarova523@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1492990>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Qahhor hikoyalariدا qo'llangan ayollar obrazni nutqiga xos paralingvistik vositalar haqida ma'lumot berilgan. Xususan, ayollar nutqining leksik-semantik xususiyatlari, qahramonning o'ziga xos xarakterini verbal va noverbal birliklar orqali ifodalash usullariga urg'u beriladi. Qahramonlar nutqidagi paralingvistik unsurlarning o'ziga xos uslub bilan bayon etilishi hikoyadan olingan.

Tayanch so'zlar: paralingvistika, gender lingvistikasi, noverbal vositalar, mentalitet tushunchasi, ohang, mimika, imo-ishora, tana harakatlari.

**ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПАРАЛИНГВИСТИЧЕСКИХ
СРЕДСТВ, ХАРАКТЕРНЫХ ДЛЯ ЖЕНСКОЙ РЕЧИ**

(На основе рассказа Абдуллы Каххара “Anor”)

Аннотация. В этой статье женщины фигурируют в рассказах Абдуллы Каххара. Даны сведения о паралингвистических средствах специфичных для речи персонажа. В частности, акцент делается на лексико-семантических особенностях женской речи, способах выражения своеобразия характера через вербальные и невербальные единицы. Описание паралингвистических элементов в речи героев в уникальном стиле взято из повести.

Ключевые слова: паралингвистика, гендерная лингвистика, невербальные средства, менталитет, мимика, жесты, телодвижения.

**LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF PARALINGUISTIC MEANS SPESIFIC TO
WOMEN'S SPEECH**

(Based on Abdulla Qahhor's story “Anor”)

Abstract. In this article, the women used in the stories of Abdulla Qahhor. Information about paralinguistic tools spesific to the speech of the character is given. In particular, emphasis is placed on the lexical-semantic features of women's speech, ways of expressing the character's

unique character through verbal and non-verbal units. The description of paralinguistic elements in the characters' speech in a unique style is taken from the story.

Keywords: *paralinguistics, gender linguistics, nonverbal verbs, mentality, concept, mimicry, gestures, body movements.*

Kirish. Paralingvistika – noverbal birliklar, ya’ni intonatsiya, ohang, ustsegment birliklar, mimika, imo-ishora, tana harakatlarining xususiyatlarini o’rganuvchi soha hisoblanadi.

Nolisoniy vositalar nutq jarayonining uzviy va ajralmas bo’lagi sifatida, muhim qismi sifatida milliy o’ziga xoslikni aks ettiradi, urf-odatlар va odob harakatlari, jins munosabati bilan chambarchas bog’liq bo’ladi, nutq jarayonida qo’llanilib, mazmunni yorqin ifodalashga, ochib berishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasi milliy mentalitetga yaqqol yo’naltirilgan hikoyalardan biridir. Adib hikoyalari, birinchi navbatda, samimiyligi, ishontirish kuchi, ta’sir quvvati bilan kishini hayratda qoldiradi. Yozuvchi tasvirlayotgan barcha voqealar hayat hodisasi, aynan sodir bo’lgan voqeа, real hayatning bir parchasi, qahramoni bilan gavdalaniadi.

“Abdulla Qahhorning shunday hikoyalari borki, ularni jahon novellistik adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan bir qatorga qo’yish mumkin”, rus tanqidchisi V.Smirnova. [1, 2]

Nutqiy muloqot jarayonida ifodalanishiga ko’ra nolisoniy birliklar ayollar va erkaklar nutqida farqlanishi hammaga ma’lum. Nutqiy jarayonda ularning turlicha ko’rinishda aks etishi, erkaklar va ayollarning tana tuzilishi, fiziologik o’ziga xoslik, erkak va ayollar nutqining yuzaga chiqishida ularning psixlogik xususiyati, yoshi, kasbi, ijtimoiy kelib chiqishi va albatta, oilaviy muhiti alohida ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda aynan jins bilan bog’liq lisoniy hodisalarni farqlash va tadqiq qilish maqsadida “gender tilshunosligi” istilohi keng qo’llaniladi. ”Gender” tushunchasi inglizcha so’zdan olingan bo’lib, “gender”-“jins” degan ma’noni anglatadi. Jins tushunchasi fiziologik voqelik asosi bo’lgan ijtimoiy qurilma sifatida baholaydi. [3, 11] Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasida ham ana shunday maskulinlik va femininlik qarashlari yaqqol aks etgan. Ya’ni ayollarga va erkaklarga xos noverbal vositalar deyarli har bir hikoyada uchraydi.

”Turobjon tugunchani berdi. Xotini shu yerning o’zida eshik oldida o’tirib tugunchani ochdi-da, birdan bo’shashib ketdi va sekin boshini ko’tarib eriga qaradi. O’z qilmishiga gerdayib turgan Turobjon uning ko’zida jiqla yosh ko’rib:-Nima ekanini

bildingmi?-dedi. -Asalarining uyasi! Turgan bitgani asal! Mana, mana, siqsang asal oqadi. Bunisi oq mum, harom emas-shimsa ham bo'ladi, chaynasa ham bo'ladi.[1, 3]

Ta'kidlash joizki, gender lingvistikasi hozirgi o'zbek tilshunosligida tadqiqot markaziga aylangan sohlardan biri hisoblanadi. Yuqoridagi parchada ham aynan gender lingvistikasiga xos elementlar ko'zga tashlanadi. Anorga bosh qorong'i bo'lgan ayol erining anor olib kelishini intiqlik bilan kutayotgan bir paytda, erining asalari uyasini ko'tarib kelishi, ayolining ahvolini qay darajaga tushganini, uning birdan bo'shashib ketgani va eriga sekin *boshini ko'tarib* qaragan vaziyatida tasvirlab berilgan. Aynan boshini sekin ko'tarishiga diqqatimizni qaratadigan bo'lsak, bu holat aynan ayollarga xos noverbal vositadir. Ayol eriga aynan shahd bilan qarasa ham bo'lardi, ammo bu yerda o'zbekona mentalitet va o'zbek ayollariga xos tarbiya, ularning erkaklarga bo'lgan hurmati, o'z xohishlaridan ham (ayni ana shunday vaziyat bo'lishiga qaramasdan) ustun qo'yishi o'z isbotini topgan. Shu vaziyatda, nutq jarayonida erining gerdayib turishi erkaklarga xos noverbal vaziyatning dalilidir. Ya'ni o'zbek erkaklariga xos gerdayish, qomatning g'oz turishi ularning fe'l-atvori va gender xususiyatlarining namunasidir. Bundan tashqari o'zbek erkaklari o'zining qat'iyatliligi, bir so'zliligi bilan ajralib turadi. Insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab ayollar va erkaklar o'rtasidagi tafovut yaqqol ko'zga tashlanib kelinmoqda. Bu tafovutlar dastavval, ularning bajarayotgan ishlarida, yumushlarida, keyinchalik esa kishilik jamiyatining rivojlanishi natijasida, ularning xulq-atvorida, kiyinish uslubida, shuningdek, so'zlashida ham ajrala boshlagan. **"Turobjon uning ko'zida jiqlqa yosh ko'rdi"**,-[1, 3] ayollarga xos ojizalik, ko'ngil bo'shligi izohlangan. Ya'ni ularning vaziyatga ta'sirchanligi ifodalangan. Bu esa asar qahramonlari holatini yanada yaqqol tasvirlab bergen.

"Xotin yengini tishlab bir nuqtaga qaraganicha qoldi".[1, 4] Adib ayolning ichki holatini, uning ko'nglidan kechayotgan his-tuyg'ularni, anorga bo'lgan intiqlikni, ko'nglidagi xohish hissining tobora kuchayib borayotganligi adib mahorati bilan g'oyat ta'sirchan tasvirlab berilgan. O'zbek paralingvistik vositalarining ko'pchiligi kishilarning salbiy hislatlarini aks ettirishi bilan xarakterlidir. Kishilardagi qaysarlik, o'jarlik, harakatsizlik, sergaplik, maqtanchoqlik, manmanlik kabi salbiy hislatlar nutq jarayonida turli nolisoniy vositalar orqali yuzaga chiqadi va so'zlovchining subyektiv munosabatini ifodalab, yanada kuchliroq baho ifodalovchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

"Uning avzoyidan "esiz jo'xori, qatiq, o'tin" ma'noni anglab, xotin ko'ngli tortmasligiga qaramasdan, kosani bo'shatdi, ammo darhol tom orqasiga o'tib ko'zlari qizargan, chakka tomirlari chiqqan holda qaytdi.[1, 5]

Yuqoridagi matnda esa noverbal vositalarning qo'shaloq holda qo'llanilishi berilgan. Bu esa nutqiy vaziyatning yanada yorqinroq olib berilishiga xizmat qilgan. Erkaklarga xos bo'lgan g'azablanish, ko'zlarning qizarishi, chakka tomirlarning bo'rtib chiqishi, ularga xos bo'lgan xulq-atvorning isbotidir. Bu holat Turobjonning g'azablanganini, uning ichki kechinmalarini ifodalab bergen.[Bunda Turobjonni emas,ayolining holatini tasvirlangan.Ovqatni majburan yegani uchun qayt qilib tashlaydi].

-O'sha asalning puliga anor ham berar edi.

-Berar edi ! - dedi Turobjon zaharxanda qilib.-Anor olmay asal oldim!

-Albatta, berar edi! Albatta anor olmay asal oldim!

-Albatta, berar edi! Albatta, anor olmay, asal olgansiz!

Mana shunday vaqtarda til qotib, og'izda aylanmay qoladi, mabodo aylansa, mushtning xizmatini qiladi. [1, 5] Til qotib og'izda aylanmay qolishi ifodalananayotgan verbal nutq jarayonida ma'noni yanada kuchaytirib ifodalash uchun, aynan, ana shu noverbal vosita qo'llangan.Bu o'rinda g'azab darajasining yuqori ko'rsatkichi ifodalangan.Erkaklarga xos bo'lgan g'azablanish jarayonining yuqoriligi birgina so'z natijasida yuzaga chiqishi murakkab jarayon. Bunday holatda noverbal vositalarning ishtiropi, albatta, ma'noni yorqinroq ifodalashga yordam beradi.

"Xotin uyg'a kirib ketdi. Anchadan keyin darchadan xira shu'la tushdi. Turobjon ham kirdi. Xotin darcha yonida, bir tizzasiga boshini qo'ygan, qoramtil-kulrang osmonga qarab o'tirar edi.[1, 6] Femininlik xususiyati, ichki kechinmalar noverbal vositalar yordamida yanada aniqroq ifodalanaadi. Asar qahramoni bo'lgan ayolning ichki kechinmalari, ruhiy holati noverbal vositalar yordamida yanada aniqlashtirib berilgan. Tizzasiga boshini qo'yish, bu nutqiy jarayonning qay ahvolda ekanligi, qahramonning holati, jins munosabatida o'z aksini topadi. Ayollarning boshini tizzasiga qo'yishi, ularning o'ychan, tashvishli, nimadadir xavotirda ekanligi, mehrga, yupanchga muhtojigini ifodalaydi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha,ayollar ham erkaklarga o'xshab o'z g'azablarini turli noverbal vositalar yordamida ifodalab beradilar. Hikoyada keltirilgan noverbal birliklar adib mahoratini yana bir bor gavdalantiradi.

Jamiyatda erkak va ayollar teng huquqliligining ta'minlanishi, ayollarning turmush sharoiti, yashash tarzi, ish faoliyati, kundalik muloqotiga va noverbal xatti-harakatlariga ham sezilarli darajada ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Bu holat hozirgi zamonaviy jamiyatda, nutqiy muloqot jarayonida, ularning noverbal vositalardan foydalanishlarida ham bir xilliklarni yuzaga keltirmoqda.

Xulosa o’rnida aytish joizki, paralingvistika – noverbal birliklar, ya’ni ohang, imo-ishora, mimika, tana harakatlarining xususiyatlarini o’rganuvchi sohadir. Uni o’rganishdan asosiy maqsad, nutq egasining maqsadini yanada yorqinroq ochib berish, nutqni tejash, bo’yoqdorligini oshirish kabi vazifalarni bajarishga qaratilgan. Xuddi shu o’rinda, Abdulla Qahhor asarlari, ularning sodda tili, bo’yoqdorligi, paralingvistik vositalarga, milliy mentalitetga boy noverbal vositalarga uyg’unligi bilan ajralib turadi. Bu nolisoniy birliklar zamirida asar qahramonlarining ruhiy va jismoniy holatlari yanada ochiq tasvirlab berilgan. O’zbek tilida baho lingvistik vositalar bilan birga, balki paralingvistik vositalar bilan yordamida aks etishi yozuvchi hikoyalarida yaqqol isbotini topgan. Paralingvistik vositalar milliy xususiyatlarni o’zida gavdalantiradi, urf-odatlar, odob xatti-harakatlari bilan aloqador bo’ladi va muloqotning ajralmas uzvi sifatida nutqiy muloqotda bevosita va bilvosita ishtirok etadi.

REFERENCES

1. Abdulla Qahhor. ”Anor” hikoyalar to’plami. ”Abadiy barhayot asarlar” turkumi-T.:”Oltin qalam”, 2024. -128b.
2. B.R.Ahmedov. Nutqiy muloqotda paralingvistik vositalarning o’rni. “O’zbekistonda xorijiy tillar” ilmiy-metodik elektron jurnal, N 5/2019. -77 b.
3. B.R.Ahmedov. Paralingvistik vositalarning genderologik va pragmatik tadqiqi. Andijon-2021.-14 b.
4. X.I.Islomjonova. Paralingvistik vositalarning gender xususiyatiga oid lingvopragmatik tahlil. “21-asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. N4, 2018-yil. -3b.
5. Barotova M.O. O’zbekona paralingvistik vositalarning tizimi tadqiqi. Buxoro-2023. -11 b.